

O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Ochilova Sarviosiyo,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Salima Jumayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti.

Annotasiya. Maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining leksik xususiyatlari haqida so‘z boradi. O‘zbek xalq topishmoqlari leksikasi tilshunoslik nuqtai nazaridan juda kam o‘rganilgan janrlardan sanaladi. Vaholanki, har bir janrning til xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o‘rganmay turib, xalq og‘zaki ijodining lisoniy tabiati to‘g‘risida yetarli va to‘laqonli ilmiy umumlashmalarga erishib bo‘lmaydi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining til xususiyatlar; ma‘nosi, qo‘llnilish o‘rni, lisoniy tabiati va til xususiyatlari misollar orqali dalillangan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, xalq ijodi, milliy poetika, tilshunoslik, leksika, so‘z, qiyoslash, obrazli ifoda, ramz.

Annotation: The article talks about the lexical features of Uzbek folk riddles. The lexicon of Uzbek folk riddles is one of the less studied genres from the point of view of linguistics. However, it is impossible to reach sufficient and full-fledged scientific generalizations about the linguistic nature of folk art without a comprehensive and in-depth study of the linguistic features of each genre. In this article, the language features, meaning, place of use, linguistic nature and language features of Uzbek folk riddles are proven through examples.

Key words: riddle, folk creativity, national poetics, linguistics, lexicon, word, comparison, figurative expression, symbol.

Аннотация: В статье говорится о лексических особенностях узбекских народных загадок. Лексика узбекских народных загадок является одним из малоизученных жанров с точки зрения языкознания. Однако без всестороннего и глубокого изучения языковых особенностей каждого жанра невозможно прийти к достаточным и полноценным научным обобщениям о языковой природе народного творчества. В данной статье на примерах доказываются языковые особенности, значение, место употребления, языковая природа и языковые особенности узбекских народных загадок.

Ключевые слова: загадка, народное творчество, национальная поэтика, языкознание, лексика, слово, сравнение, образное выражение, символ.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodida milliy poetika qonunlari asosida yaratilgan topishmoqlar talaygina. Biroq ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalq topishmoqlari leksikasi tilshunoslik nuqtai nazaridan juda kam o‘rganilgan janrlardan sanaladi. Vaholanki, har bir janrning til xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o‘rganmay turib, xalq og‘zaki ijodining lisoniy tabiati to‘g‘risida yetarli va to‘laqonli ilmiy umumlashmalarga erishib bo‘lmaydi. Ushbu maqolamizda o‘zbek xalq topishmoqlarining til xususiyatlari va tasviriy vositalari masalasiga to‘xtalamiz.

Ma’lumotlarga ko‘ra, qadimda turkman, qozoq, qirg‘iz xalqlari kabi o‘zbeklarda ham topishmoq aytish an’analari mavjud bo‘lgan. Folklorshunos Z.Husainovning yozishicha, “...o‘zbek xalqi orasida ham qadimda biror muayyan vaqtda, biror marosimda topishmoq aytish rasm bo‘lgan. Ajdodlarimiz kundalik mehnatdan bo‘shagandan keyin, ko‘pincha kechasi topishmoq aytishar ekan. Lekin hozirgi kunda bunday aytishishlarning izlari saqlanmagan.”[1:7]

So‘z o‘yining badiiy shakli sanalgan topishmoqlar, dastavval, topmacha, topishmoq, topar, cho‘pchak, top-top, jumboq, jumoq, matal, masala kabi bir qancha atamalar bilan yuritilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, janrning kengroq tarqalgan atamasi ko‘pchilik turkiy xalqlarda yo topmoq so‘zidan, yoki yummoq so‘zidan olingan.[1.9] Topishmoq termini hatto shu janrga mansub asarlarning bir qator namunalarida ham uchraydi: “Topmoq topishmoq, tanga yopishmoq”(kiyim), “Topmachamning o‘zi qora, topmagannning yuzi qora” (qozon) kabi. Keyinchalik bu atama xalq og‘zaki ijodida muayyan bir mustaqil janrning nomi sifatida qabul qilingan.[2.12]

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi asosan besh lug‘aviy qatlamdan iborat: 1) umumturkiy (Yoki tub turkiy) so‘zlar; 2) fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlar; 3) arabcha o‘zlashma so‘zlar; 4) o‘zbekcha so‘zlar; 5) ruscha so‘zlar. O‘zbek xalq topishmoqlarida qo‘llangan so‘zlar esa asosan, to‘rtta qatlamga mansub bo‘lib, beshinchi qatlam – ruscha va yevropa so‘zlari xalq topishmoqlarida deyarli qo‘llanmaydi. Ularning ayrimlari o‘zbek xalq topishmoqlarining javobi sifatida mavjuddir, xolos. Masalan, “Po‘lat qushim uchdi, ketdi, Bir zum o‘tmay Oyga yetdi” (Raketa). Bizningcha, bu bir tomondan, xalq topishmoqlarining qadimiyligi, ikkinchi tomondan, ruscha so‘zlarning jonli xalq tili ruhiga singisha olmaganidan darak beradi.

Tub turkiy so‘zlar. O‘zbek xalq topishmoqlarida qo‘llangan so‘zlarning ko‘pchiligi ana shu lug‘aviy qatlamga mansubligi bilan xarakterlanadi. Tub turkiy so‘zlar xalq topishmoqlarida qo‘llangan barcha so‘z turkumlari doirasida asosiy o‘rin tutadi va faol qo‘llanadi. Masalan: ot va sifat so‘z turkumlari doirasida; Bukri Qo‘chqor otasi, jashil-jalpaq enasi, Shirin shakar bolasi (Tok: zangi, bargi, uzumi). Og‘zi qora alomat, ichi qizil qiyomat (Tandir). Son va olmosh doirasida. Masalan, “O‘zi bitta, ko‘zi mingta” (Elak), “Biz-biz edik, biz edik, o‘ttiz ikki qiz edik” (Tish). Ravish doirasida, “Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda” (Ko‘rpa). Fe’l doirasida, “Kelaveradi-ketaveradi, quvaveradi-qochaveradi” (Suv va baliqlar) va hokazo.

Xalq topishmoqlarida bor, yo‘q so‘zlari faol qo‘llanadi. Ma’lumki, bu so‘zlar ham tub turkiydir. Masalan, “O‘zi bor, soyasi yo‘q” (Suv, quduq). “O‘zimda bor, esimda yo‘q” (Kindik) singari.

Xalq topishmoqlarida eng yuqori iste’mol darajasiga ega bo‘lgan so‘zlarning deyarli hammasini umumturkiy so‘zlar tashkil qiladi. Xususan, oy muchallari va qarindosh-urug‘chilikni bildiruvchi umumturkiy so‘zlarning nihoyatda faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Masalan, “Oq g‘ozim uchdi ketdi, Ichagini cho‘zdi ketdi (Varrak)”, “Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi” (quyosh, oy, yulduzlar). “Oyog‘i yo‘q, qo‘li yo‘q – eshik ochar” (Shamol) kabi.

Fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlar. O‘zbek xalq topishmoqlarida asli fors-tojikcha bo‘lgan, biroq asrlar davomida qo‘llanaverib, o‘zbek tilining o‘z so‘zidek bo‘lib ketgan, bugungi kunda o‘zlashmalik bo‘yog‘iga butunlay Yoki deyarli ega bo‘lmagan o‘zlashmalar muhim o‘rin tutadi. Son va fe‘l turkumini hisobga olmaganda, fors-tojikcha o‘zlashmalar xalq topishmoqlarida qo‘llangan deyarli barcha so‘z turkumlari doirasida kuzatiladi. Ular ko‘proq aniq va mavjud narsa-hodisalar bilan bog‘liq tushuncha, belgi-xususiyatlarni bildiruvchi eng zaruriy va keng iste’moldagi so‘zlardir. Masalan: “Laylak uyada, quyrug‘i ziyoda”, “Otdan baland, itdan past”, “Hammaga to‘n tikaman, o‘zim yalang‘och”, “U yoqqa o‘tadi lik-lik, Bu yoqqa o‘tadi – lik-lik, tomosha lik-lik, hamisha – lik-lik” singari. Biroq xalq og‘zaki ijodida shunday topishmoqlar ham borki, ularda o‘zbek tiliga o‘zlashib ketmagan, fors-tojik tiliga mansublik bo‘yog‘i aniq ko‘rinib turgan so‘zlar ham qo‘llangan. [4.91.]Bizningcha, bunday topishmoqlar har ikkala xalq uchun mushtarak topishmoqlardir. Masalan, “Hovuzi qul-qulum, pochada darozu kalta dum”, “Chil tok, chilmon tok, chil hujra chil qaznoq” singari.

Arabcha so‘zlar. Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashmalarning ko‘pchiligi mavhum ma’no ifodalovchi so‘zlardir. Masalan, hayot, adovat, muammo, insof kabi. Biroq aniq ma’no anglatuvchi keng iste’mol arabcha o‘zlashmalar ham bir talay, ya’ni, asal, qulf, qalam, odam kabi. O‘zbek xalq topishmoqlarida birinchi tipdagi arabcha o‘zlashmalar deyarli qo‘llanmaydi. Xalq topishmoqlari tilidagi arabcha o‘zlashmalarning ko‘pchiligi aniq bir ma’no ifodalovchi so‘zlardir. Masalan, “Sandiq to‘la oq sadaf”, “Asaldan shirin, zahardan achchiq”, “O‘zi harom, kuchi halol” kabi. Demak, umuman olganda hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavhum ma’noli arabcha o‘zlashmalar ko‘proq qo‘llansa, topishmoq tilida, aksincha, aniq ma’noli arabcha o‘zlashmalar faol qo‘llanadi.

O‘zbekcha so‘zlar. Xalq topishmoqlarida o‘zbekcha so‘zlar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, ular ikki xil: a) jonli xalq tilida iste‘molda bo‘lgan o‘zbekcha so‘zlar, b) topishmoqning o‘z ichida hosil bo‘lgan o‘zbekcha so‘zlar.

Xalq topishmoqlaridagi o‘zbekcha so‘zlarning ko‘pchiligi jonli xalq tilida keng keng qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Zero, o‘zga xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek xalq ijodida ham badiiy nutqning qiyoslash, istiora, jonlantirish, sifatlash kabi asosiy ko‘rinishlari bir maqsadga – olamni poetik idrok qilishga, voqelikni poetik tasvirlashga bo‘ysundirilgan. Masalan, “Boshingdagi boshpana, Qish-qirovda gulxona” (telpak), “Dunyoda nima chaqqon?” (fikir), “Otasi egri-bugri, onasi silliq juvon” (daryo o‘zani), “O‘yin, o‘yin, o‘yining, Ko‘ngil ochar to‘yining” (Topishmoq), “Topishmog‘im topishmoq, topishmog‘im yopishqoq” (yelim), “Bir qozondan qirq tuya suv ichadi” (Chuchvara), “Kichkina, kichkina kelinchak, Boshlarida tugunchak” (isiriq).

Xalq topishmoqlarida topishmoqning o‘z ichida yaratilgan, jonli xalq tilida ham, adabiy tilda ham uchramaydigan, shu ma‘noda yangi o‘zbekcha so‘z sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan yasama so‘zlar ham kuzatiladi. Ular o‘zbekcha so‘zlar oldiga qo‘yiladigan talablarga har tomonlama javob beradigan, o‘zbek tilining so‘z yasash qonunlari asosida yaratilgan lug‘aviy birliklardir. Chunonchi, “Bir qo‘limda yeldirgich, bir qo‘limda kuldirgich” (jugan). Bu yerdagi kuldirgich ba‘zi odamlarda bo‘ladigan va ular kulganda yuzlarida hosil bo‘ladigan mitti chuqurcha ma‘nosidagi kuldirgich so‘zining yangi ma‘noda qo‘llanishi emas, balki yeldirgichga o‘xshatib topishmoq to‘qish jarayonida yasalgan so‘zdir. Uning ta‘kidlangan “kuldirgich”ga kelib qolishi tasodifiy holdir. Binobarin, ularning har biri o‘z holicha yuzaga kelgan shakldosh (omonim) so‘zlardir. Topishmoqdagi kuldirgich jugan (ot asbobi)ning topishmoq nuqtai nazaridan berilgan nom-ta‘rifi bo‘lib, kuldiruvchi, kulganga o‘xshash holatga soluvchi (narsa) ma‘no mundarijasiga ega, “yeldirgich” esa yeldiruvchi, tez harakatlantiruvchi (narsa) ma‘nosidadir.

Xalq topishmoqlari yozma adabiyotning taraqqiyotiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Zero, xalq topishmoqlari mumtoz adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax, ta‘rix kabi lirik janrlarning paydo bo‘lishi va rivojida muhim omil sanaladi. Masalan, “Qirq hujrada qizil qizlar” (Anor) xalq topishmog‘i ta‘sirida o‘zbek mumtoz adabiyotida “Kichkina gumbaz ichida, Qizlar aylabon makon. Yuzlarida parda tutug‘liq, Har birining bag‘ri qon” (Anor) misralari bilan tanilgan Uvaysiy ijodidagi chiston fikrimiz dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, go‘zal istioralar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o‘zbek topishmoqlarining til xususiyatlarini har tomonlama va

chuqur o‘rganmay turib, uning lisoniy tabiati to‘g‘risida yetarli va to‘laqonli darajada ilmiy umumlashmalarga erishib bo‘lmaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq topishmoqlari leksikasida umumturkiy so‘zlar bilan birga o‘zlashma so‘zlar ham faol qo‘llaniladi. Ayni jihatlar ijtimoiy – tarixiy, umumfilologik nuqtai nazaridan tadqiq etishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husainova Z. “O‘zbek topishmoqlari”. –T:Fan, Toshkent.1966.
2. Topishmoqlar. “O‘zbek xalq ijodi”// Ko‘p tomlik, –T.:Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1983.
3. O‘zbek folklori ocherklari // Ikki jildlik. –T:Fan, Toshkent.1989.
4. Imomov K., Mirzayev T.,Sarimsoqov B.,Safarov O., O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi. –T.:”O‘qituvchi”, 1990.